

## MAKTAB O'QITUVCHILARINING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI: TAJRIBA VA TAHLIL

Xushvaqtova Mukarram

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi talabasi

Aslonova O.P.

Rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14193902>

**Annotatsiya.** Maqolada o'qituvchilarning kasbiy-komponentlik qobiliyatlari, pedagog shaxsiga qo'yiladigan talablar, jahon hamjamiyatidagi o'rni, xalqaro miqyosida ta'limga bo'lgan e'tibor kabi fikrlar yuritiladi. Bundan tashqari, qaysi tajribalarni o'zlashtirish kerakligi hamda o'qituvchilarni qanday qilib zamon talablariga mos ravishda kamol topdirish haqida so'z boradi. Yuksak iqtidordan yuksak salohiyat sohibi tarbiya topadi.

**Kalit so'zlar:** pedagog, komponentlik, talablar, xorij mamlakatlari, tajriba va tahlil.

## PROSPECTS FOR IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF SCHOOL TEACHERS: EXPERIENCE AND ANALYSIS

**Abstract.** The article, the professional component abilities of teachers, the demands placed on the pedagogue, their place in the world community and the attention to education on the international scale are discussed. In addition, it will be discussed which foreign experiences should be adopted and how to train teachers in accordance with the requirements of the times. Of the person with high potential is formed from high talent.

**Keywords:** pedagogue, component, requirements, foreign countries, experience and analysis.

## ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ ШКОЛЬНЫХ УЧИТЕЛЕЙ: ОПЫТ И АНАЛИЗ

**Аннотация.** В статье рассматриваются положительная составляющая навыков учителей, требования к педагогу, их место в мировом сообществе, внимание к международному обращению. Кроме того, будет обсуждаться, какой зарубежные опыт следует принимать и как говорят учителей в соответствии с требованиями времени. Человек с высоким потенциалом формируется из высокого таланта.

**Ключевые слова:** педагог, компонент, требования, зарубежные страны, опыт и анализ.

## Kirish

Jahon hamjamiyatida pedagogik shaxslarni tarbiyalashda katta e'tibor qaratilmoqda.

Dunyo talablariga javob beradigan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun albatta dastavval o'qituvchilarni tayyorlashimiz kerak. Zamonaviy mutaxassislarga bo'lgan talabning kun sayin ortib borayotgani, maktablardagi o'qituvchilarning javob bera olmasligi dolzarb muommolardan bo'lib kelmoqda. Har tomonlama rivojlangan shaxsnini tarbiyalashda pedagogning komponentlik qobiliyati muhimdir. "Komponentlik" tushunchasi xabardorlik, o'z sohasi bo'yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo'lish bilan belgilanadi.

Respublikamiz mustaqil davlat sifatida dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga kirish uchun harakat qilmoqda. Bunda esa albatta pedagog shaxsining o'rni beqiyos. Xalq ta'limi o'z oldiga kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish kabi vazifalarni qo'yadi. Mazkur vazifalar umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish bilan bog'liq. Bu esa o'qituvchidan o'z navbatda o'z fanini chuqur bilishi, innovatsiya g'oyalarga ega bo'lishi, izlanishda, o'qib-o'rganishdan aslo charchamasligi kerak. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytgandek, "O'zbekistonda eng obro'li inson muallim bo'lishi kerak". Ya'niki biz aytmoqchimiz, o'qituvchi zamonaviy bilim bersin, ammo bilim berishi uchun avvalo o'zi o'sha bilimlarga ega bo'lsin.

## Asosiy qism

O'qituvchi kasbiy madaniyatini shakllantirish, alohida kasbiy malaka, ijodkorlik ko'nikmalarini hosil qilish, muomala madaniyatini shakllantirishdan iborat bo'lib, kuzatuvchanlik, ilg'or pedagogik tajribalarni mustaqil o'zlashtira olishlari zarur. Buning uchun xorijiy tajribalar bilan biroz tanishib chiqamiz.

Yaponiya ta'ilmida "iqtidorli o'quvchi" degan tushuncha yo'q, chunki har bir o'quvchi ma'lum bir iqtidor sohibidir. Ular boshlang'ich sinfdanoq tanqid qilishga o'rgatiladi. Pedagoglar bolaga faqat ta'lim berish bilan cheklanib qolmay ularni har tomonlama kamol topdirish uchun harakat qilishadi. Bundan tashqari moddiy ehtiyojlari bor bolalarga ham yordam berishadi. \

Yaponiya ta'lim tizimi AQSH ta'lim tizimiga nisbatan biroz yuqoriqoqdir hamda shuni eslatib o'tishim kerakki, bunda faqat o'zining ta'lim tizimiga bog'lanib qolmay boshqa xorijiy mamlakatlarinikini ham o'rganadi. Masalan, AQSH, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan davlatlarnikini ham o'rganib, amalda qo'llaydilar. Bunday tajribalar Respublikamizda ham qo'l kelishi mumkin.

AQSH davlati ham ta'lim tizimiga e'tibor bilan qarashadi. Hattoki, yalpi ichki mahsulotning 7.5 foizi ta'liga ajratiladi. 88 foiz o'quvchilar davlat maktablariga, 12 foiz o'quvchilar xususiy maktablarga boradi.

Maktab nomlari ham raqamlar orqali emas, mashhur shaxslar nomiga qo'yilgan. Har bir sinfga kompyuterlar bilan ta'minlangan. Angliya va Rossiya davlatlariga nisbatan matematik bilimlar nisbatan kech o'rgatiladi. Kara jadvallari 3-sinfdan o'rgatilish boshlanadi.

Amerika davlatida 1-3-sinflar uchun "Sevimli o'yinchoq" metodi qo'llanadi. O'quvchining eng yaxshi ko'rgan o'yinchog'i haqida o'zi ta'riflab beradi. Bu esa sinfdoshlar orasida erkin gapirishni shakllantiradi. AQSH davlatining maqbul jihatidan o'zlashtirishimiz mumkin.

Germaniya ta'lim tizimi jahon ma'rifat va madaniyat o'chog'i hisoblanadi. Har bir shaxsn erkin rivojlantirish, o'z ikitidori qobiliyatiga qarab kasb tanlashga e'tibor qaratadi. Boshlang'ich sinflarni poydevor deb biliшadi. O'qituvchilari ham mukammallikka intilishadi. O'z sohasi bo'yicha yangiliklar yaratishadi. Maktablariga to'xtaladigan bo'lsak, ular bepul hisoblanadi.

Germaniya ta'lim tizimi o'zini oqlab kelayotgan tizimlardan biridir.

Fransiyada maktab o'qituvchilariga qo'yilgan talab kattadir. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z fanining ustasi, tashkilotchi, san'atkor, musiqachi, sportchi, notiq, namunali xulq egasi bo'lmos'i darkor. Shu bilan birga maktab o'qituvchilarini direktor hayday olmaydi. Yaxshi ishlamaydigan o'qituvchilarini ta'lim inspeksiyasi tomonidan taftish qilinadi. Uning intizomi, o'qituvchilik faoliyati, bolalar, ota-onalar o'rtaсидagi obro'si diqqat bilan o'rganiladi va tegishli chora-tadbirlar ko'rildi.

### Xulosa

Kasbiy madaniyat, pedagog xodimlarning bilimini, kasbiy va axloqiy madaniyatini oshirib borishda xorij tajribaridan foydalanish bizda yangi bilimlarni shakllantirish bilan birga, yangicha tajribalarni ham olib kiradi. Uzluksiz ta'lim samaradorligini oshirishda ham, kasbiy komponentlarini rivojlantorishga ham o'z hissasini qo'shadi. Shuningdek, malakali pedagoglarni tayyorlash, zamon talablariga muvofiq ravishda bilimli kadr qilishda juda ham samarali hisoblanadi. PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash tizimlarida ham muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun albatta o'qituvchilarimizda ana shu ko'nikmalarini hosil qilishimiz kerak.

Almashish, ayrboshlash bozor iqtisodiyotida foyda bergani kabi ta'limga ham o'z hissasini qo'shmasdan qolmaydi. Raqamli zamonda yashayotgan bir davrda albatta raqobatbardosh pedagoglarga ehiyojimiz bor.

### REFERENCES

1. Aslonova O.P. Diversifikatsiya sharoitida rivojlantiruvchi ta'lim sifatini oshirish imkoniyati. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS: a collection scientific works of the International scientific conference (27-28 February, 2023) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2023. P 61-64

2. Aslonova O.P. Psychological-Pedagogical and Methodological Bases of the Development of Educational Content of the Data Sheet. Eurasian scientific herald open access, peer reviewed journal.<https://geniusjournals.org/index.php/esh> volume 9 | june 2022. issn (e) : 2795 - 7365. journal impact factor: 8.225.P.46-50.
3. G.Anorqulkova, A.Karimov. Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xos yo'nalishlari uslub va tahlil. Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnali, 2017-yil 3-soni.
4. R. Ilashova. Amerika maktablarida "Boshlang'ich ta'lim" jurnali 2019-yil 3-soni.
5. Jumayeva G.T. Maktab o'qituvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va tarkibiy komponentlari. Ta'lim, fan va innovatsiy. Jurnal, 2-soni 2022.